

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasining 2023 yil 30 noyabr

№ 6-sonli yig’ilishi

BAYONNOMASI

Qatnashdilar: majlis raisi “Maktabgacha ta’lim” kafedrasini mudiri Sh.Suyunov.

O’qituvchilar: dots.M.O’.Naimov, Sh.K.Mahmudov, N.Xolmirzayev, L.Elmurodova, I.Turdiyeva, B.Shaximardonova, N.Shoymadonova, O.Achilov, S.Shaymardonova, D.Avloqulov, M.Ermatova, A.Kosimov, M.Niyozova, M.Gadoyeva, M.Yuldashova, R.Pardayeva va boshqalar.

Kun tartibi:

Professor-o’qituvchilar tomonidan ochiq darslarni o’tkazish va o’zaro darslarga kirishning tashkil etilishi to’g’risida

S.Esanovning ochiq darsi muhokamasi mas’ul:

kafedra mudiri Sh.Suyunov

Ochiq darsning mohiyati haqida bahs – munozara: S.Esanovning axboroti “Maktabgacha pedagogika” fanidan “Maktabgacha ta’lim tashkiloti hujjatlari. Tarbiyachi va uslubchining ish hujjatlari. MTTning yillik, oylik, istiqbol ish rejalari” mavzusidagi ochiq darsining muhokamasi.

Kafedra yig’ilish raisi Sh.J.Suyunov.

Hurmatli professor-o’qituvchilar **S.Esanovning** ochiq darsi *“Maktabgacha pedagogika” fanidan “Maktabgacha ta’lim tashkiloti hujjatlari. Tarbiyachi va uslubchining ish hujjatlari. MTTning yillik, oylik, istiqbol ish rejalari”* mavzusida 14.11.2023 yil 128-xona 1 jiftlikda “Pedagogika” fakultetining sirtqi 5-bosqich maktabgacha ta’lim yo’nalishi 506-MT-S-2019 va 507-MT-S-2019 guruh talabalari bilan o’tkazildi. Mashg’ulot jarayonida MTTlarining ish hujjatlari Maktabgacha ta’lim agentligining 99-sonli buyrug’i bilan tanishtirilib, pedagog hodimlarning ish hujjatlari bilan tanishtirib o’tildi. Kasbiy-pedagogik bilimdonlik, pedagogik madaniyat, tarbiyachi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi, tarbiyachi faoliyatida

pedagogik qobiliyatlari haqida talabalar o'zlarining bilimlarini turli metodlar yordamida bayon etdilar. Mavzu bo'yicha "Zinama-zina", "Aqliy hujum", "Klaster", "Savol-javob" metodlari yordamida o'tilgan mavzu mustahkamlandi. Tarqatma materiallar, krasvordlar, testlar, didaktik o'yinlar va tezkor savollar yordamida yangi mavzu bayon etildi. Davlat ta'lim standartlari asosida o'quv rejalari va dasturlar tuzilgan.

O'qituvchi o'quv jarayonini tashkil etishda o'quv rejalari va dasturlariga amal qilgan holda darsni tashkil qildi. Dars ilg'or pedagogik texnologiya asosida tashkil etildi. Mavzuning rejalari aniq va to'liq berilgan. Dars davomida o'qituvchi tezkor savollar yordamida "Kim tezkor" metodini qo'llagan holda o'tilgan mavzuni mustahkamlab oldi. Talabalarni bugungi kundagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy yangiliklar bilan tanishtirib o'tdi. Dars jarayonida talabalarga "Klaster" metodi yordamida mavzu mustahkamlandi.

So'z kafedramiz dotsenti M.O'.Naimovga

Mashg'ulotning sifati har bir dars komponentlarining to'g'ri aniqlanganligi ularning uyg'unlashuviga bog'liq. Shunday ekan, bugungi **S.Esanovanning** ochiq darsini kuzatib, quyidagi fikrlarni aytmoqchiman.

Mashg'ulotni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etdi:

- a) darsda maqsadni aniq ta'limiy va tarbiyaviy masalaga qaratdi.
- b) o'quv materiallarini tahsil oluvchilarga yetkazishda munosib metoddan foydalandi,
- v) talabalar jamoasi aniq bir faoliyatga jalb etildi.
- g) darsning rejasi va maqsadi aniq, puxta oldindan rejalashtirilgan. "Maktabgacha pedagogika" fani bo'yicha me'yoriy hujjatlar yetarli. Dars jarayonida bahs usullaridan samarali foydalanildi. Ilg'or pedagogik texnologiyalar usulidan foydalanildi. Darsda talabalar faol ishtirok etdilar. Dars qiziqarli tashkil etildi

Yosh avlodni bilimli, ma'rifatli shaxs sifatida kamol toptirishda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarining ahamiyati beqiyosdir. Bugungi ochiq darsni **S.Esanovanning** ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida olib bordi. Dars davomida talabalarning faolligini oshirishga, muntazam tarzda qiziquvchanligini oshirishga harakat qildi. O'qituvchi oldiga qo'ygan maqsadiga erishdi.

Pedagogika fakulteti dekani – Sh.K.Mahmudov "Maktabgacha pedagogika" fanining namunaviy dasturi, ishchi dasturi, kalendar tematik ish rejasi, fanning

texnologik xaritasi, ma'ruza matnlari mavjud. Mavzu juda qiziqarli yoritib berildi. Darsda ko'rgazmali qurollardan foydalanildi. Talabalar savollarga erkin javob berdilar. O'qituvchi darsni tashkil etish jarayonida pedagogik texnologiyalardan to'g'ri foydalangan holda talabalarni mashg'ulotga jalb qila oldi.

O'qituvchi I. Turdiyeva – O'qituvchi darsni to'g'ri tashkil qilgan talabalar bilan ishlash jarayoniga alohida e'tibor qaratilgan. Zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanganligi va taqdimotni talab darajasida tayyorlanganligi talabalarni darsga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirdi.

Kamchiliklari:

1. Mashg'ulot jarayonida o'tilgan mavzuni mustahkamlashga savol-javoblarga kamroq urg'u berildi
2. Metodlarni qo'llash jarayonida kamchiliklarga yo'l qo'yildi

Kafedra yig'ilishi qaror qildi:

1. **S. Esanovanning** ochiq darsi zamonaviy talablar darajasida o'tganligi, unda hozirgi ta'lim metodlaridan, Axborot texnologiyalardan unumli foydalanishning muhim jihatlari qamrab olingani qayd qilinsin.
2. **S. Esanovanning** olib borgan ochiq darsning dolzarbligi, ilmiy-amaliy jihatdan mukammalligi hisobga olinib, ijobiy baholansin.

Pedagogika
dekani
*Sh. J. Suyunov*
Kafedra mudiri: **Sh. J. Suyunov**

Kotiba:

Z. Boymurodova

Ochiq dars jarayonlaridan lavhalar



